

**SCIENCE  
PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar  
fanlarning dolzARB  
muammolari**

Jild 3, Son 12/2

**2023**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **ИЖТИМОЙЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

**№ 12/2 (3)-2023**

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2023**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### **07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:**

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Укташ Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

### **08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:**

Карлибаева Раја Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойкулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўкташович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Ҳатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Ҳамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б., Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### **09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:**

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яҳшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукахаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

### **10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шуҳрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салаҳутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

### **12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:**

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Ҳуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси

Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Файбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амирнов Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судъялар олий кенгаси хузуридаги Судъялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич - юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

### **13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:**

Хашимова Диљдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент аҳборот технологиялари университети хузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

---

### **ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

---

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг  
долзарб муаммолари** электрон журнали  
1368-сонли гувоҳнома билан давлат  
рўйхатига олинган.  
Муассис: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"  
масъулияти чекланган жамият.

Тайланова Шохида Зайниневна - педагогика фанлари доктори, доцент.

### **19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

### **22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Марҳабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

### **23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР**

Назаров Насридин Атакулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

### **Таҳририят манзили:**

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:  
[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

Телеграм канал:

[https://t.me/scienceproblems\\_uz](https://t.me/scienceproblems_uz)

## МУНДАРИЖА

### 10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

<i>Axmedov Oybek Saparbaevich</i>	
ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИДА СОЛИҚ-БОЖХОНА ТЕРМИНОЛОГИЯСИДА АНТОНИМИЯ ҲОДИСАСИНИНГ ЎРНИ.....	10-18
<i>Nematova Maftuna</i>	
ЛАКУНА И ТИПОЛОГИЯ ЛАКУН .....	19-24
<i>Hamroyeva Shahlo Mirdjonovna, Matyakubova Noila Shakirjonovna</i>	
MOSLASHTIRISH JARAYONIDA O'ZBEK VA INGLIZ TILIDAGI SODDA GAPLARNING SINTAKТИК TAHLILI.....	25-32
<i>Jo'rayeva Nilufar Sobirjon qizi</i>	
"SMILE" VA "TABASSUM" TUSHUNCHALARINING LINGVISTIK IFODASI (INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA) .....	33-38
<i>Sidiknazarova Zulfiya Mirsharapovna</i>	
BADIY TARJIMA TAHLILINING NAZARIY ASOSLARI .....	39-43
<i>Jumanova Shahnoza Ikromjonovna</i>	
IJTIMOIY – PSIXOLOGIK MOTIVNI ANGLATISHDA PEYZAJNING O'RNI .....	44-50
<i>Achilov Oybek Rustamovich</i>	
ILGAR SURISH VOSITALARINING BADIY ASAR SARLAVHASIDA TASNIFLANISHI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....	51-57
<i>Axmedova Madinabonu Maxmudjonovna</i>	
XALQ NASRI JANRLARINING O'ZARO MUNOSABATLARI .....	58-62
<i>Isroilova Manzura Jamolovna</i>	
FRANSUZ KOMPARATIV FRAZEOLOGIZMLARINING USLUBIY XUSUSIYATLARI .....	63-68
<i>Кенжабоев Шокир Абдулхалимович</i>	
ОСОБОЕ МЕСТО В ИЗУЧЕНИИ И РАЗВИТИИ МЕТОДИКИ ПРЕПОДАВАНИЯ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА В ШКОЛАХ УЗБЕКИСТАНА .....	69-74
<i>Fayziyev Bahodir Baxshullayevich</i>	
J. K. ROULINGNING "GARRI POTTER VA AFSONAVIY TOSH" ASARIDAGI TO'QIMA NOMLAR VA REALIYALAR HAMDA ULARNING RUS VA O'ZBEK TILLARIGA TARJIMASI .....	75-79
<i>Mamatqulova Shoxsanam Isroil qizi</i>	
OLAMNING O'ZBEK LISONIY TASVIRIDA "FIDOIYLIK" KATEGORIYASI .....	80-84
<i>Тухтаева Фарида Исматуллаевна</i>	
ИССЛЕДОВАНИЕ СТЕРЕОТИПОВ РОМАНАХ ПЕРЛ БАК .....	85-90
<i>Radjabova Dildora Raximovna</i>	
PIRIMQUL QODIROVNING "YULDUZLI TUNLAR" ASARI INGLIZCHA TARJIMASIDA BOBUR PSIXOLOGIYASI .....	91-96
<i>Mansurova Shohista Ismailovna</i>	
BADIY TARJIMANING MAQSADI, VAZIFALARI VA TARJIMA METODLARI .....	97-102
<i>Ermatov Ixtiyor</i>	
SIRDARYO VILOYATI TOPONIMLARI.....	103-108

<i>Axmedjanova Farida Djavairovna</i>	
GRAMMAR INSTRUCTION IN COMMUNICATIVE LANGUAGE TEACHING .....	109-114
<i>Saitov Suxrob Djumaydillayevich</i>	
ARTISTIC INTERPRETATION AND RESOLUTION OF HUMAN TRAGEDIES IN THE STORY .....	115-119
<i>Tўрабоева Ҳакима Усмонжон қизи</i>	
ФИРДАВСИЙ ДАҲОСИГА МЕХР .....	120-124
<i>Toshpo'latova Xusniya Mamayusub qizi, Normamatov Farrux Komiljon o'g'li</i>	
INGLIZ REKLAMA SHIIDLARI TARJIMASI JARAYONIDA	
SHAKL VA MA'NO MUVOFIQLIGI .....	125-129
<i>Abdumannonov Xojsiakbar Akmaljon ugli</i>	
ОСВЕЩЕНИЕ ФРАЗЕОЛОГИИ В СВЕТЕ НАУЧНОЙ ЛИТЕРАТУРЫ (краткий обзор на примере учебных пособий и словарей узбекского языка) .....	130-136
<i>Abdullaeva Raъno Xikmatovna</i>	
РЕПРЕЗЕНТАЦИЯ КОНЦЕПТА «ДРУГ/ДРУЖБА» В РУССКОЙ И УЗБЕКСКОЙ ПОСЛОВИЧНОЙ ЯЗЫКОВОЙ КАРТИНЕ МИРА .....	137-144
<i>Hamidova Sayyora Nurmatovna</i>	
TILSHUNOSLIKNI MENTALINGVISTIK BOSQICHIDA KOGNITIV TADQIQOTLAR.....	145-151
<i>Rustamova Dilrabohon</i>	
ATAMALAR LUG'ATINING UMUMIY VA FARQLI TOMONLARI .....	152-157
<i>Khazratqulova Ozoda Abduganiyevna</i>	
EXPRESSION OF THE CONCEPT OF FORGIVENESS IN LEXICOGRAPHIC SOURCES AND ARTISTIC LITERATURE .....	158-162
<i>Farmonov Nurbek Pulatovich</i>	
WEB OF SCIENCE MA'LUMOTLAR TIZIMIDAN FOYDALANISH .....	163-169
<i>Xojiyeva Oynisa Shabonovna</i>	
ALISHER NAVOIY ASARLARIDA TURKIY XALQLAR MAQOLLARINING AKS ETISHI .....	170-176
<i>Norqobilov Sanjar Rahmat ugli</i>	
COMPARING COMPUTATIONAL LINGUISTICS APPROACHES ACROSS LANGUAGES .....	177-182
<i>Mamarasulova Iroda Jumanovna, Xojimetov Sa'dulla Jumanazarovich</i>	
ANGLIYA UYG'ONISH DAVRI ADABIYOTI .....	183-190
<i>Xo'jamqulov Anvar Jozilovich</i>	
OMON MUXTOR ROMANLARIDA POETIK USLUB QIRRALARI .....	191-196
<b>12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР</b>	
<i>Кутыбаева Елизавета Дүйсенбаевна, Аманиязова Света Байнязовна</i>	
ВОПРОСЫ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОРГАНИЗАЦИИ И ФУНКЦИОНИРОВАНИЯ СИСТЕМЫ ОРГАНОВ ИСПОЛНИТЕЛЬНОЙ ВЛАСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН .....	197-203
<i>Mirzaabdullaeva Matluba Rustamovna</i>	
СУВДАН ФОЙДАЛАНУВЧИ ВА СУВ ИСТЕМЛЧИСИ ТУШУНЧАЛАРИНИНГ ҲУҚУҚИЙ АҲАМИЯТИ ХУСУСИДА АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР .....	204-209
<i>Toshkanov Nurbek Bahriiddinovich</i>	
BILIMLAR IQTISODIYOTI VA INTELLEKTUAL MULK: TIJORATLASHTIRISHNING BA'ZI HUQUQIY JIHATLARI VA MUAMMOLARI .....	210-216

<i>Nishonov Abdulloh Ubaydulloh o'g'li</i>	
ATOM ENERGIYASINI JOYLASHTIRISHNING XALQARO EKOLOGIK TALABLARI .....	217-223
<b>13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ</b>	
<i>Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna</i>	
OLIY TA'LIM MUASSALARIDA TA'LIM SIFATINI OSHIRISHNING PEDAGOGIK SHART- SHAROITLARI .....	224-228
<i>Sadullayeva Shahlo Azimbayevna, Parmankulov Farxodjon Nurali o'g'li</i>	
TYUTORLAR ISH JARAYONIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARINI TATBIQ ETISH METODIKASI .....	229-233
<i>Pirimova Nargiza Adilovna</i>	
SPORT-TAYYORGARLIK MASHG'ULOTLARIDA BALANDLIKKA SAKROVCHI QIZLARNING O'QUV-MASHG'ULOT JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH .....	234-239
<i>Tangirqulov Elmurod Aliyarovich</i>	
BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA ATROF-MUHITNI ASRASH ORQALI EKOLOGIK TARBIYA BERISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA "YASHIL MAKON" MODULLARI .....	240-244
<i>Xayrov Rasim Zolimxon o'g'li</i>	
BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARINING KASBIY-METODIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISHDA TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING QO'LLANILISHI .....	245-258
<i>Ahmadjonova Odina Anvarjon qizi</i>	
ZAMONAVIY TA'LIM MUHITIDA INGLIZ TILI DARSLARIDA STEAM TA'LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI: STEAM KOMPETENSIYALAR TUSHUNCHASI .....	259-265
<i>Valieva Xolida</i>	
AJDODLAR MEROSI - INSONIYAT BOYLDI .....	266-271
<i>Djumayeva Dildora Isroilovna</i>	
BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI .....	272-277
<i>Davlatova Nilufar Vosiljonovna</i>	
TA'LIM-ISSLAB CHIQARISH INTEGRATSİYASINI KUCHAYTIRISHDA ZAMONAVIY TA'LIMNING O'RNI VA MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARI .....	278-285
<i>Mamaraimova Zebo Shafoatovna</i>	
YUQORI SINF O'QUVCHILARINI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK TAMOYILLARI .....	286-290
<i>Turayev Yolqin Sherzod o'g'li</i>	
KATTA MAKTABGACHA TA'LIM YOSHDAGI BOLALARDA DALILY ASOSLASH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI .....	291-295
<i>Abdurashulova Shoira Kushakovna</i>	
BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLILIGINI INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH .....	296-305
<i>Sottarov Abduvali Umirqulovich</i>	
UMUMIY FIZIKA KURSINI O'QTISHDA NANOTEXNOLOGIYA FAN VA TEXNIKA SOHASI SIFATIDA .....	306-310

<i>Xushnazarova Ma'mura Nodirovna</i>	
VOLONTYORLIK FAOLIYATINIG IJTIMOIY-PEDAGOGIK MUAMMOLARI .....	311-315
<i>Xushvaqtov Umar Norqobilovich</i>	
AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANIB O'QUVCHILARDA IMPERATIV TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHDA KOMPETENSIYANING RO'LI .....	316-320
<i>Alimqulova Ra'noxon Gulmirzayevna</i>	
BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARIDA NUTQ MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR .....	321-326
<i>No'monxonova Muattarxon Nosirxon qizi</i>	
BO'LAJAK TILSHUNOSLARDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARKOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARINING AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI .....	327-331
<i>Xalikov Faroxidin</i>	
TA'LIM TIZIMIDA TESTOLOGIYADAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH SAMARADORLIGI .....	332-339
<i>Abduvaxidov Xusan Abdulkulovich</i>	
OLIY TA'LIM TALABALARIDA INNOVATSION YONDASHUV ORQALI KOMPETENTSIYALARINI SHAKLLANTIRISH .....	340-345
<i>Якубова Нафиса Одилжановна</i>	
ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУССАСАЛАРИДА ЧИЗМАЧИЛИК ДАРСЛАРИДА ТАЛАБАЛАРНИ ИЖОДИЙ-КРЕАТИВ ФИКРЛАШГА ЎРГАТИШ МЕТОДИКАСИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ .....	346-354
<i>Karimov Qayum Mamashayevich</i>	
TALABALARNI KOMPYUTERLI MATEMATIKA TIZIMLARINING GRAFIK IMKONIYATIDAN FOYDALANISH BO'YICHA BILIMINI OSHIRISH .....	355-360
<i>Yusupova Shoxista Alimjanovna</i>	
TO'GARAK MASHG'ULOTLARI ORQALI TASVIRIY SAN'AT FANIGA ASOSLANGAN XOLDA O'QUVCHILAR IJODIY QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....	361-371
<i>Касимов Ойбек Омилович</i>	
СПОРТДА АХЛОҚИЙ ҚОИДАЛАР ВА “FAIR PLAY” НОРМАЛАРИНИНГ АҲАМИЯТИ ...	372-378
<i>Abduraxmonov Akbar Abduxamidovich</i>	
MILLIYLIK VA UMUMINSONIYLIK TAMOYILLARI UYG'UNLASHUVINING NAZARIY- METODOLOGIK JIHATLARI .....	379-386
<i>Фазлиддинов Шухрат Фахриддинович</i>	
ПРИМЕНЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ НА ЗАНЯТИЯХ ПРИ ИЗУЧЕНИИ КАТЕГОРИИ РОДА ГЛАГОЛА В ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ВУЗАХ .....	387-394
<i>Jurayev Bobomurod Ramazonali o'g'li</i>	
TALABALARNING JISMONIY FAOLLIGINI OSHIRISH VA RIVOJLANTIRISH JARAYONINING SAMARADORLIK DARAJASI .....	395-400
<i>Eshbekova Gulabahor Zafarboyevna</i>	
MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING YOZISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI .....	401-406

<i>Khidirova Malakhat Qazakhovna</i>	
ORGANIZATION AND EVALUATION OF THE EDUCATIONAL PROCESS BASED ON EUTAGOGICAL APPROACHES .....	407-413
<i>Fayzullayeva Madina Abdumo'min qizi, Xolbo'tayeva Moxinur Temurboy qizi</i>	
MENEJMENT SOHASINI O'QITISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH .....	414-420
<i>Achilov Nuriddin Abdugafforovich</i>	
AL-HAKIM AT-TERMIZIY TA'LIMOTINING ILMIY TADQIQI .....	421-426
<i>Norinov Muxammadyunus Usibjonovich</i>	
JAMIYAT TARAQQIYOTIDA BO'LAJAK MUHANDISLARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISHNING AHAMIYATI .....	427-432
<i>Begimqulov Zarif Axmadovich</i>	
JISMONIY TARBIYA YO'RIQCHISINING IJTIMOIY-MADANIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA MALAKA OSHIRISH JARAYONINING AHAMIYATI .....	433-438
<i>Izbosarova Zuxro Anatoliy qizi</i>	
BO'LAJAK BOShLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINING KOMMUNIKATIV KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH SAMARADORLIGI .....	439-443
<i>Jumayev Sirojiddin Zafarovich</i>	
MOLEKULYAR BIOLOGIYADAN OQSILLARNING AMINOKISLOTA TARKIBI VA AMINOKISLOTALARNING TASNIFI MAVZUSINI O'QITISHDA MASALA VA MASHQLARDAN FOYDALANISH .....	444-449
<i>Pulatova Muxabbat Egamberdiyevna</i>	
BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARIDA INNOVATSION KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI .....	450-457
<i>Yuldashev Mengali Ziyaduloyevich</i>	
BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARIDA MUSTAQIL ISHLASH KOMPITENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH .....	458-463

*13.00.00– Педагогика фанлари*

**Davlatova Nilufar Vosiljonovna**  
Namangan Davlat Universiteti tayanch doktoranti

**TA'LIM-ISHLAB CHIQARISH INTEGRATSIYASINI KUCHAYTIRISHDA ZAMONAVIY  
TA'LIMNING O'RNI VA MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARI**

**Annotatsiya.** Bugungi kunda jahonda kechayotgan globallashuv va texnologik qurollanish bosqichida sifatli ta'limga, uning natijasida yuqori bilimli, intellektual salohiyatlari, xalqaro maydonlarda raqobatbardosh kadrlarga talab ortib bormoqda. Ushbu maqolada rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimi va ularni moliyalashtirishning o'ziga xos xususiyatlari va mexanizmlarini o'rganish asosida O'zbekiston zamonaviy ta'lim tizimi samaradorligini oshirish hamda ta'lim-ishlab chiqarish integratsiyasini jadallashtirishga qaratilgan xulosa va tavsiyalar shakllantirilgan.

**Kalit so'zlar:** ta'lim texnologiyalari, oliy ta'lim, daromad, budget, budgetdan tashqari mablag'lar, moliyalashtirish, innovatsiya, metod, ta'lim, mexanizm, ta'lim andozalari, xorij ta'lim tizimi, zamonaviy ta'lim, investitsiyalar.

---

**Davlatova Nilufar Vosiljonovna**  
doctoral student of Namangan State University

**ROLE AND FINANCING MECHANISMS OF MODERN EDUCATION IN STRENGTHENING  
EDUCATIONAL-PRODUCTION INTEGRATION**

**Annotation.** At the stage of globalization and technological rearmentament in the world today, the demand for quality education, as a result of which highly educated, intellectual potential, competitive personnel in international fields is growing. In this article, based on the study of the educational system of developed countries and the specifics and mechanisms of their financing, conclusions and recommendations are formulated aimed at improving the effectiveness of the modern educational system of Uzbekistan and accelerating the integration of education and production.

**Keywords:** educational technology, higher education, income, budget, extra-budgetary funds, financing, innovation, method, education, mechanism, educational templates, foreign education system, modern education, investments.

---

**Давлетова Нилуфар Восильжоновна**  
Базовый докторант Наманганского  
государственного университета

**РОЛЬ И МЕХАНИЗМЫ ФИНАНСИРОВАНИЯ СОВРЕМЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ В  
УСИЛЕНИИ ИНТЕГРАЦИИ ОБРАЗОВАНИЯ И ПРОИЗВОДСТВА**

**Аннотация.** Сегодня в мире на этапе глобализации и технологического перевооружения растет спрос на качественное образование, в результате которого высокообразованные, интеллектуально одаренные, конкурентоспособные на международной арене кадры. В данной статье на основе изучения особенностей и механизмов системы образования развитых стран и их финансирования сформулированы выводы и рекомендации, направленные на повышение эффективности современной системы образования Узбекистана и ускорение образовательно-производственной интеграции.

---

**Ключевые слова:** образовательные технологии, высшее образование, доходы, бюджет, внебюджетные фонды, финансирование, инновации, метод, образование, механизм, образовательные шаблоны, зарубежная система образования, современное образование, инвестиции.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V3I12.2Y2023N43>

**Kirish.** O‘zbekiston Davlat mustaqilligiga erishib, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va bozor iqtisodiyotiga o‘tishning o‘ziga xos yo‘lini tanlab olishi barcha tarmoq va sohalarda qator chora-tadbirlarni amalga oshirishni talab qildi. Birgina ta’lim tizimini olaylik. Bugun ta’lim inson uchun yangi texnologiyalarni hayotga tatbiq etishning muhim omillaridan biriga aylandi.

Ayniqsa, jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashib borayotgan O‘zbekiston uchun ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimini shakllanayotgan bozor, shu jumladan, mehnat bozori talablariga moslashtirish hamda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish maqsadlari va vazifalariga muvofiqlashtirishni hayotning o‘zi taqozo etdi. Mazkur vazifalarning ijrosi oliy ta’lim tizimida ham ma’lum o‘zgarishlarni amalga oshirish, islohotlarning mustahkam molivaviy ta’milot tizimini samarali boshqarishni yanada takomillashtirish zaruratinini yuzaga keltirdi. Bu esa mamlakatimizdagi ta’lim muassasalari, ayniqsa oliy ta’lim muassasalari oldiga ulkan vazifalarni qo‘yadi. Bunday vazifalarni amalga oshirish esa albatta vaqt va katta mablag‘ni talab etadi.

“Investitsiya kiritmasdan turib, modernizatsiya ham yangilanish ham qilib bo‘lmaydi” bu gapning yaqqol isbotini ayrim mamlakatlar ta’lim tizimida ko‘rishimiz mumkin. Xususan Fransiya, Yaponiya, Germaniya va AQShda fan, texnika, ishlab-chiqarish, xizmat ko‘rsatish va boshqa sohalar shu darajada rivojlanganki, bu nafaqat shu mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy sharoitini rivojlanishiga, balki ularni dunyo mamlakatlari o‘rtasida tutgan nufuzini oshirishga, eksport salohiyatini ko‘tarishga hamda milliy valyutasini xalqaro savdoda keng qo’llanilishiga zamin yaratmoqda.

**Adabiyotlar sharhi.** Ta’lim texnologiyasi ko‘p qirrali hodisadir: bugungi kunda ta’lim muassasalari nazariyasi va amaliyotida katta ta’lim jarayonining turli xil variantlari. Har bir muallif va ijrochi pedagogik jarayonga o‘ziga xos, individual narsalarni olib keladi, shuning uchun ular har bir muallifning o‘ziga xos texnologiyasiga ega ekanligini aytishadi [1].

Ta’lim tizimi yangi bosqichga ko‘tarilganligi sababli talabalarning fikr darajasi kengaymoqda, axborot olish imkoniyatlari osonlashmoqda, bunday sharoitda dars jarayonlarida innovatsion texnologiyalardan foydalanmaslik talabalarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini va dars samaradorligini pasaytirib yuboradi. Ta’lim jarayonida pedagogning kasbiy mahorati, o‘z kasbiga puxta yondoshgan holda darslarni tashkil etishi bo‘lajak yosh kadrlarning ko‘nikma va malakalarini shakllantirilishiga o‘zining ijobjiy ta’sirini ko‘rsatadi [2].

Bugungi kunda axborot ko‘lami juda kengaydi. Agar o‘qituvchi o‘z ustida ishlama avvalgi o‘rgangan bilimlari yetarli bo‘lmay qoldi. Dars mavzularini kundalik hayotdagagi keskin voqealar bilan bo‘g’lab o’tilsa, turli innovatsion texnologiyalardan foydalanilsa dars esda qolishiga erishilishi mumkin. O‘qituvchi o‘quvchilarga innovatsion usullardan foydalanib, o‘tilyotgan mavzularga mos holda dars mashg‘ulotlarini tashkil etishi zarur [3].

Innovatsiya so‘zi (inglizcha) yangilik kiritish, yangilik degan ma’noni ifodalaydi, texnologiya esa yunoncha “texnos” – san’at, mahorat va “logos” — fan so‘zlaridan olinib innovatsion texnologiya ta’lim-tarbiya shakllari, metodlari va usullariga yangicha yondoshish degan ma’noni bildiradi. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon, o‘zgarishlar kiritishdir [4].

Pedagogik innovatsiya - pedagogik faoliyatda yangilik, ta'lim va tarbiya mazmuni va texnologiyalar samaradorligini oshirish hisoblanadi. Shunday qilib, innovatsion jarayon pedagogik faoliyatning mazmuni va tashkil etilishini rivojlantirishdan iborat. Umuman olganda, innovatsion jarayon deganda innovatsiyalarni yaratish, ishlab chiqish, foydalanish va tarqatish bo'yicha kompleks faoliyat tushuniladi. Innovatsiyalar qaysi mezon bo'yicha bo'linishiga qarab turli xil turlari mavjud [5].

Ta'lim tizimini rivojlantirishda innovatsion jarayonlar quyidagi yo'naliшlarda amalgalashiriladi: yangi ta'lim mazmunini shakllantirish, yangi pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish, yangi turdag'i ta'lim muassasalarini yaratish. Bundan tashqari, bir qator ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilari pedagogik fikr tarixiga aylangan yangiliklarni amaliyotga joriy etish bilan shug'ullanmoqda [6].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqot metodi sifatida mavzuni to'liq yoritib berish maqsadida tahliliy jadval, taqqoslash nazariyasi hamda rivojlangan mamlakatlarning ta'lim texnologiyalari tahlil qilingan.

**Tahlil va natijalar.** Ta'lim jarayoniga, jumladan, umumjahon manfaati va inson salohiyatini maksimal darajada rivojlantirishga kengroq qarash zarur. Jahon iqtisodiyotining ob'ektiv haqiqati shundaki, Yaponiya tomonidan moliyalashtirilgan sport avtomobili Italiyada ishlab chiqilgan, Meksika, Fransiyada yig'ilgan va AQShda ishlab chiqilgan yuqori aniqlikdagi elektron komponentlardan foydalanadi. Hozirda bir mamlakatga tegishli mahsulotlar va texnologiyalarning vaqtin tugadi va xuddi shu jihat korporatsiyalar va umuman sanoat uchun ham amal qiladi. Bunday holatda millatning asosiy boyligi fuqarolarning malakasi va ijodiy salohiyatiga borib taqaladi.

Ayniqsa, aholi soni va uning ehtiyojlarini ortib borayotgan hozirgi zamonda inson kapitaliga investitsiya qilish, ya'ni mamlakat ta'lim tizimi sifatini oshirish va moliyalashtirish dolzARB masalalardan biriga aylanmoqda [7].

O'tgan chorak asr davomida O'zbekiston ta'lim tizimi shaklan va mazmunan o'zgardi. Xususan, mamlakatda ikki bosqichli majburiy ta'lim joriy etildi, ta'limning keyingi bosqichlari hisoblangan oliy ta'lim tizimida o'quv rejalar, fan dasturlari va o'quv adabiyotlari tubdan yangilandi, katta ilmiy-izlanuvchi xodim va mustaqil tadqiqotchi instituti tashkil etildi. Ular shakli va shamoyili jihatidan dunyoning rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimi va xalqaro ta'lim andozalariga to'liq javob beradi, navbatdagi asosiy vazifalardan biri mazkur institutlarning mazmun jihatidan zamonaviy talablar darajasiga chiqarish hisoblanadi. Albatta, bu ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligini yanada oshirish va katta miqdorda moliyaviy mablag'larni talab etadi.

Shuni alohida qayd etish lozimki, O'zbekistonda ta'lim tizimini moliyalashtirish borasida juda katta tajriba to'plangan, bu albatta o'zining tegishli samarasini bermoqda. Shunga qaramasdan, bizning fikrimizcha, bu borada ayrim rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimi va ularni moliyalashtirishning ijobjiy va maqbul jihatlarini mamlakatimiz ta'lim tizimida qo'llash yuzasidan xulosalar ishlab chiqish foydadan holi bo'lmaydi.

Ma'lumki, 1990 yildan boshlab Yevropa va rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimida bir necha yo'naliшlalar bo'yicha isloq qilish ishlari boshlandi. Xususan, oliy ta'lim muassasalariga xarajatlarni amalga oshirish va ularni boshqarishda qator mustaqilliklar berildi, bundan tashqari har bir ta'lim muassasi oldiga uzoq muddatga mo'ljallangan rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish va uni amaliyotga tatbiq etish vazifasi qo'yildi. Maqolada ularning ayrimlari, ya'ni

Fransiya, Yaponiya, Germaniya va AQSh ta'lim tizimi va ularni moliyalashtirishning asosiy jihatlari va o'ziga xos xususiyatlari atroficha o'ganilgan.

**Fransiyada oliy ta'lim tizimi** tarkibiga 87 ta universitet kiritilgan bo'lib, ularning uchtasi milliy politexnika universiteti, beshta nodavlat katolik institutlaridir. Mamlakat universitetlari tarkibida bir necha institutlar (113 ta texnologik, 66 ta mutaxassislik (kollejlar), 30 pedagogik) tashkil etilgan.

Fransiyada oliy ta'lim tizimi faoliyatini boshqarish vazifasi Milliy o'qitish, oliy ta'lim va fan vazirligi zimmasiga yuklatilgan. Bundan tashqari mutaxassislik oliy ta'lim muassasalari ushbu vazirlikdan tashqari tegishli yo'nalishi bo'yicha vazirliklarga ham hisobdor hisoblanadi, o'quv muassalari asosan mamlakat budgeti hisobidan moliyalashtiriladi. Fransiyada ta'lim tizimiga qilinayotgan xarajatlar mamlakat YaIMga nisbatan 1,1 foizni tashkil etib, uning 1,0 foizi davlat hissasiga, qolgan qismi 0,1 foiz xususiy homiylar hissasiga to'g'ri keladi. Shunga ko'ra, Fransiyada ta'lim bepul hisoblanadi, biroq davlat budgeti va homiylar hisobidan shakllantirilgan mablag'lar pedagog-xodimlarning ish haqi va moliyaviy qo'llab quvvatlash maqsadlariga sarflanib, talabalar turar joy va ovqatlanish (270-600 yevro), shuningdek institut shaharchasi infratuzilmasi uchun (130-700 yevro) o'z hisobidan xarajat qiladi [8].

**Yaponiya oliy tizimi** 600 ga yaqin oliy ta'lim muassasalarini o'z tarkibiga oladi, ularning 425 taga yaqini xususiy ta'lim muassasalari hisoblanadi. Ayni paytda mazkur oliy ta'lim muassasalarida 2,5 mlndan ortiq talaba tahsil olishmoqda. Davlatga qarashli bo'lgan Tokio, Kioto i Osaki hamda xususiy hisoblangan Tyuo, Nixon, Meydzi, Tokay, Vaseda va Kansay oliy ta'lim muassasalariga talab juda yuqoridir. Mamlakatda aholining 42 foizi oliy ma'lumotli hisoblanadi. Mamlakatdagi barcha universitetlar talabalarni to'lov kontrakt asosida o'qitishadi, universitetlarning reytingi va nufuzi hamda mutaxassisliklariga qarab to'rt yillik o'qish xarajati o'rtacha 80-100 ming AQSh dollarini tashkil etadi. Universtetlarga kirish imtihonlari uchun to'lov summalari alohida amalga oshiriladi.

Keyingi yillarda Yaponiya oliy ta'lim tizimida o'qish va ta'lim berish sifati pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan, chunki talabalar to'lov kontraktni to'lagandan so'ng o'zlarini o'qiganday, pedagog-xodimlar esa ularni o'qitayotganday ko'rsatishadi. Bu albatta, mamlakat rahabriyatini qattiq tashvishga solmoqda, buning oldini olish maqsadida qator strategik rejalar qabul qilinmoqda, biroq ular tegishli samara bermayapti.

Bitiruvchilarga ish beruvchi korporatsiya va kompaniyalar oliy ta'lim diplomining mamlakatdagi reytingi va nufuziga e'tibor berishadi, chunki mamlakatda mehnat bozori tizimi yaxshi rivojanmagan, shu bois ham ishga kirishni istagan bitiruvchilar ish beruvchilarning o'z faoliyati bilan bog'liq maxsus kurs va imtihondan o'tishi talab etiladi [9].

**Germaniyada 345 ta oliy ta'lim muassasasi** bo'lib, ularning 98 foizi davlat tasarrufida faoliyat yuritadi. Mazkur oliy ta'lim muassasalarida 2 mlnga yaqin talabalar tahsil oladi. Xususiy ta'lim muassasalari belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tib tegishli litsenziya olishi shart hisoblanadi.

Davlat tasarrufidagi oliy ta'lim muassasalarida o'qitish mamlakat va hatto xorij fuqarorlariga tekinga amalga oshiriladi. Mamlakat oliy ta'lim tizimiga yo'naltirilayotgan moliyaviy mablag'lar yirik summani tashkil etadi (YaIMning 5,5 foizi, O'zbekistonda ushbu ko'rsatkich 12,5 foiz). Moliyalashtirish uchun sarflanayotgan mablag'lar asosan Yer (viloyat) ma'muriyati budget xarajatlari hisobidan amalga oshiriladi.

Oliygohra o'qitiladigan o'quv qo'llanmalar va darsliklar ro'yxati ta'lim bo'yicha mas'ul vazirlilik tomonidan aniqlanadi va tasdiqlab beriladi. Mamlakatdagi oliy ta'lim muassasi qaysi Yer ma'muriyatida joylashgan bo'lsa, Federal qonunlar doirasida tayyorlangan o'sha hududning qonun va me'yoriy hujjatlari asosida faoliyatini tashkil etadi.

Abiturent Abitur dasturi bo'yicha imtihonidan yetarli ballni yiqqandan so'ng oliy ta'lim muassasasiga qabul qilinadi, ayrim oliygohlar bundan tashqari qo'shimcha imtihonlarni ham tashkil etadi. Masalan, tibbiyot va iqtisodiyot oliygohlarida ushbu amaliyot joriy etilgan.

Germaniyada talaba o'quv kurslarini tanlash imkoniyati va huquqiga egadir, bu ularning kelgusida tadqiqot yo'nalishidan borishi yoki amaliyotda ishlashi bilan bog'liqdir. Har bir semestr ma'ruza darslari va ma'ruzasiz darslarga bo'linadi, semestrning ma'ruzasiz qismida talaba mustaqil ravishda ilmiy-tadqiqot ishlari bilan shug'ullanadi. Mamlakat oliy ta'limini moliyalashtirishning o'ziga xos va muhim ahamiyatga ega bo'lган jihat shundaki, ajratilayotgan mablag'ning (YaIMga nisbatan 2,48 foizi) asosiy qismi aynan ilmiy-tadqiqot ishlari bilan shug'ullanayotgan talabalarning xarajatlarini qoplashga yo'naltiriladi. Agar talabaning ilmiy-tadqiqot ishlari bilan shug'ullanish niyati bo'lmasa mutaxassislik tayyorlaydigan oliy ta'lim muassasiga kiradi, ushbu oliy ta'lim muassasalarida o'qish bevosita korxona va tashkilotlarning amaliy faoliyati bilan u兹viy bog'liqlikda olib boriladi [10].

**Amerika Qo'shma Shtatlarida** barcha ta'lim shakllari, shuningdek oliy ta'lim tizimi markazlashmagan holda faoliyat yuritadi. Mamlakatdagи shtatlar ma'muriyati shtatning ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlaridan kelib chiqqan holda hududda joylashgan oliy ta'lim muassasalarida o'qish va o'qitish tizimi bilan bog'liq siyosatni mustaqil holda belgilaydilar. Shtatning ta'lim departamenti oliy ta'lim jarayonini mamlakat siyosatiga muvofiq kelishini nazorat qilib boradilar, Federal ta'lim Departamenti mamlakat oliy ta'lim muassasalarida ta'limni tashkil etishning ustuvor yo'nalishlarini belgilab beradi, ushbu yo'nalishlar mamlakat Kongressida muhokama etilgandan so'ng moliyalashtirish tartibi va miqdori yuzasidan qonun loyihasi qabul qilinadi.

Ta'lim Departamenti moliyalashtirish jarayoni va mablag'larning samarali foydalanish ustidan nazoratni amalga oshiradi. AQShda 2002 yilda qabul qilingan ilmiy-tadqiqot yo'nalishini rivojlantirish bo'yicha dasturga asosan xususiy oliy ta'lim muassasalarining umumiy xarajatlarining 10 foizgacha bo'lган qismi davlat budjeti hisobidan moliyalashtiriladi.

AQShda ta'lim krediti joriy etilgan bo'lib, ushbu kreditlar ta'limni moliyalashtiriladigan jami summasining 30 foizdan ko'pini tashkil etadi. Talaba institutni tugatgandan so'ng uch yil davomida kreditning asosiy summasi va unga hisoblangan foizni bankka qaytaradi, agar talaba o'qish uchun to'lovni o'z hisobidan to'lasa universitet to'lov summasining 24 foizini to'lashga yordam beradi. AQSh oliy ta'lim tizimini moliyashtarishning 15 foizdan ko'prog'i xususiy xomiylar va grantlar hisobiga to'g'ri keladi, 20 foizi esa boshqa manbalar hisobidan shakllantiriladi.

AQShda 2500 yaqin universitet va kollejlar mavjud bo'lib, ularning asosiy qismi xususiy ta'lim muassasalari hisoblanadi. Mamlakatda davlat univesitetlari juda kam bo'lib, har bir shtatga bittadan davlat universiteti va bir necha kollej to'g'ri keladi. Davlat universiteti va kollejleri 36 foiz shtat budgetidan, 11 foizi federal budgetdan, 4 foizi mahalliy budgetdan, 18 foizi talabalar to'lov-shartnomalaridan, 5 foizi homiylar va grantlar, qolgan 26 foiz boshqa moliyaviy manbalar hisobidan moliyalashtiriladi.

AQSh oliy ta'lim muassasalarida 15 mlndan ortiq talaba tahsil oladi, ularning 600 mingdan ortig'i xorijiy talabalar hisoblanadi. AQSh oliy tizimida talaba ta'lim dasturi va o'quv predmetlarini mustaqil tanlash huquqiga ega, bundan tashqari amerika ta'lim tizimi amaliyotga yo'naltirilgan bo'lib, o'qish jarayoni ishlab chiqarish bilan bevosita bog'liq holda amalgalashiriladi. Bu AQSh ta'lim tizimining juda katta ustuvorligi bo'lib, dunyoning hech bir mamlakatida ta'limning amaliyot bilan bu qadar bog'liqligi mavjud emas. Universitetlar o'zlarining qabul kvotalarini kompaniya, korporatsiya va firmalarning buyurtmalariga asosan shakllantiradi, o'z navbatida buyurtmachilar, asosan xususiy universitet va kollejlarni yetarli darajada moliyalashtirish majburiyatini oladilar [11].

O'zbekistonda 212 ta oliy ta'lim muassasasi bo'lib, ulardan xususiy OTMlар 96 tani tashkil etmoqda. Davlat budjeti tomonidan 2022 yilda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga 4,1 trln. so'm ajratiladi. Bu mablag' 2021 yilda 2,9 trln so'mni tashkil etgan. 2023 yilda esa oliy ta'limga 5,2 trln so'm ajratilgan bo'lib, o'tgan yilga nisbatan 1,1 trln. ko'proq mablag' sarflanganini ko'rishimiz mumkin.

Zero, Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev Miromonovich ta'kidlaganidek "Ta'lim sifatini oshirish – Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to'g'ri yo'lidir" [12].

### **1-jadval**

#### **Ta'lim tizimiga yo'naltirilgan mablag'lar [13]**

Tashkilotlar	2021	2022
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi	2,9 trln. so'm	4,1 trln. so'm
Xalq ta'limi vazirligi	22,1 trln. so'm	25,8 trln. so'm
Maktabgacha ta'lim vazirligi	6,5 trln. so'm	6,5 trln. so'm
Yoshlar ishlari agentligi	317,9 6,5 mlrd. so'm	212 6,5 mlrd. so'm
El-yurt umidi jamg'armasi	140,6 mlrd. so'm	170 mlrd. so'm
Yoshlarning xalqaro "IT" sertifikatlarini olish xarajatlarining bir qismini qoplash xarajatlari	-	4,7 mlrd. so'm
<b>Jami</b>	<b>31,5 trln. 458 mlrd. so'm</b>	<b>36,4 trln. 387,7 mlrd. so'm</b>

Butun dunyodagi OTMlardagi o'zgarishlarni boshqaradigan kuchlardan ustun turish uchun texnologiya tobora ko'proq innovatsion, tejamkor yechimlar bilan bog'lanmoqda. Zamonaviy texnologiyaga asoslangan ta'lim vositalarini puxta pedagogik amaliyotlar bilan uyg'unlashtirish talabalarga ham, umuman universitetlarga ham foyda keltirishi mumkin, ammo bu ta'lim ekotizimida katta o'zgarishlarga olib keladi.

**Xulosa va takliflar.** Xorijiy mamlakatlar ta'lim tizimi va ularni moliyalashtirishning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish asosida quyidagi xulosalarni va takliflarni shakllantirishga muvaffaq bo'ldik:

-oliy ta'lim tizimini moliyalashtirish geografiyasini yanada kengaytirish maqsadida qabul kvotalarini tasdiqlashda xususiy va aksiyadorlik shaklida faoliyat yuritayotgan kompaniya va firmalarning talabalarini e'tiborga olish maqsadga muvofiq. Xususan, ularga oliy ta'lim tizimiga bevosita buyurtma berish hamda mutaxassislarni tayyorlash uchun zarur

bo'lgan pul mablag'larini oliv ta'limga muassasasiga to'lash va bitiruvchi mutaxassisni zamonaviy talablar asosida bilim olganligi bo'yicha talab qilish huquqini berish lozim;

- talabalarni o'qish jarayonida mustaqil va amaliy ishlashi yuzasidan majburiyatini oshirish maqsadida mutaxassislik fanlar boshlangan davrdan boshlab o'z mutaxassisligi bo'yicha tegishli muassasa yoki firmalarga rasman biriktirib qo'yish lozim, bu masalani amalgalashirish uchun manfaatdor muassasalar darajasidagi tegishli me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish lozim;

-talabalar o'qish jarayonida sababsiz qoldirgan darslarini, shuningdek yakuniy sinov natijalaridan o'taolmagan hollarda darslarni va yakuniy nazoratni qayta topishirish uchun moliyaviy jarima to'lash amaliyotini joriy etish maqsadga muvofiq;

-rivojlangan mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosida ta'limga tizimining mulkchilik shakli va moliyalashtirish tartibi muhim omil bo'lib hisoblanadi;

-O'zbekiston ta'limga tizimi mulkchilik shakli va moliyalashtirish jihatidan Germaniya mamlakatinikiga juda yaqindir, biroq moliyalashtirish mamlakat YalMga nisbatan ancha yuqori darajani tashkil etadi;

-oliy ta'limga tizimida mutaxassislik fanlardan dars berayotgan pedagog-xodimlar mutaxassislikka oid muassasalarda amaliyotdan o'tishi lozim. Buning uchun oliy ta'limga muassasi va real sektorlagi muassasa o'rtaida tuzilgan shartnomaga asosan pedagog – xodim darsdan so'ng haftada ikki marta o'z mutaxassisligi bo'yicha amaliyotni o'rganishi zarur;

- talabaga mutaxassislik fanlardan dars o'tilgan davrdan boshlab ularning mustaqil ta'limga soatlarini ishga oluvchi muassasada bajarishini yo'lga qo'yish zarur;

- O'zbekiston ta'limga ajratilayotgan moliyaviy mablag'lar samaradorligini oshirish uchun ta'limga ishlab chiqarish o'rtaida bog'liqlikni chuqurlashtirish lozim, bu boroda AQSh ta'limga tizimida yo'lga qo'yilgan amaliyotni ijobjiy jihatlarini mamlakatimiz ta'limga tizimida qo'llash mumkin.

Albatta, yuqorida keltirilgan tavsiyalarni amaliyotga joriy etish mamlakatimiz ta'limga tizimini tartibga soluvchi ayrim qonunchilik va me'yoriy hujjatlarga qo'shimcha va o'zgartirishlarni hamda vaqtini talab etadi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston ta'limga tizimi va uni moliyalashtirish tartibi va hajmi dunyoning eng rivojlangan mamlakatlar ta'limga tizimidan kam emas, asosiy masala ushbu mablag'lardan samarali foydalanish maqsadida ta'limga ishlab chiqarishga yanada yaqinlashtirish va zamonaviy talablarga javob beradigan bilimdon, zukko va sifatli mutaxassislarni tayyorlash lozim.

### **Адабиётлар/Литература/References:**

1. Бордовская Н.В., Жебровская О.О., Бродская И.М. Современные образовательные технологии. – 2013.
2. Ожерельева Т.А. Информационное моделирование в образовательных технологиях //Международный журнал экспериментального образования. – 2016. – №. 3-2. – С. 214-218.
3. Ильченко О. Стандартизация новых образовательных технологий //Высшее образование в России. – 2006. – №. 4. – С. 42-46.

4. Абрамов С.А. Использование современных образовательных технологий в процессе организации дополнительного профессионального педагогического образования //Оргкомитет. – 2023. – С. 5.
5. Новикова А. А. Исследование влияния современных образовательных технологий на формирование когнитивной компетентности обучающихся //Science for Education Today. – 2023. – Т. 13. – №. 2. – С. 57-75.
6. Xolilla Sariyevich Xolmuratov va boshqalar. Ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalar. "Science and Education" Scientific Journal / ISSN 2181-0842. January 2022 / Volume 3 Issue 1.
7. Ивашковский С.Н. Макроэкономика. –М.: Дело, 2002. –С.364.
8. The rising role and relevance of private higher education in Europe. UNESCO-CEPES. 2012. P. 648; 2. Всемирный доклад по образованию 2012. Сравнение мировой статистики в области образования. ЮНЕСКО. 2012. Стр. 114-121.
9. Eurydice (2013). Higher Education Governance in Europe. Policies, structures, funding and academic. Источник: ОЭСР. См. Приложение 3. ([www.oecd.org/edu/eag](http://www.oecd.org/edu/eag)).
10. The rising role and relevance of private higher education in Europe. UNESCO-CEPES. 2012. P. 648; 2. Всемирный доклад по образованию 2012. Сравнение мировой статистики в области образования. ЮНЕСКО. 2012. Стр. 502-512.
11. Digest of Education Statistics, 1998. National Center for Education Statistics. Voluntary support for institutions of higher education, by source and purpose of support: 1959-60 to 1995-96 Table 341.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi 2022-yil 20-dekabr – (<https://lex.uz/uz/docs/-6371092>)
13. Kun.uz rasmiy veb sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi – (<https://kun.uz/uz>)

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

*Nº 12/2 (3) – 2023*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг  
долзарб муаммолари**” электрон  
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-  
сонли гувоҳнома билан давлат  
рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
маъсулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яққасарой  
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-

уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).